



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoira Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоира Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоира Джалоловна	



SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI.....	197
Tursunboyev Umarbek	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна	
Мансурова Сайёра Бахтиёровна	
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
О'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	237
Shohruzbek Ruziyev	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING	244
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	256
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Mamanov Isroil Islom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI.....	260
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li	
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN	264
Dr Muhammad Bilal	
Gulyorabonu Usmonova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI.....	275
Xasanova Xamida Xaydaraliyevna	
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	281
Nazarova Shahodat Ravshan qizi	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN INDUSTRIAL COMPANIES	286
Musoyeva Rukhshona Javlon qizi	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE.....	291
Musayeva Shoira Azimovna	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ VA BUXGALTERIYA ISLOHOTLARINING KORXONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	298
Isayev Jahongir Muzaffarovich	
Jumaboyeva Zuhra Umidbek qizi	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR TOMONIDAN XODIMLAR DAROMADIDAN SOLIQNI TO'LOV MANBAIDA USHLAB QOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	302
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	309
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li	
BIZNES INKUBATORLARNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	314
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich	
GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....	323
R.O. Obloberdiyeva	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	329
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI.....	335
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEKANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI

Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
ORCID: 0009-0001-8796-4800
Email: n.ishankulov@kiut.uz

Ishbekova Lobar Yunusxonovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0007-2622-9101
Email: ishbekovalobar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatlarini oshirish mexanizmlari va ularning nazariy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada to'lov qobiliyati tushunchasining evolyutsiyasi raqamli iqtisodiyot kontekstida qayta ko'rib chiqilib, an'anaviy likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari (joriy likvidlik, tez likvidlik, mutlaq likvidlik, muxtoriyat koeffitsiyenti) bilan bir qatorda raqamli transformatsiyani baholovchi yangi indikatorlar – raqamli aktivlar ulushi, avtomatlashtirish darajasi, real vaqt rejimidagi to'lovlar ulushi, kiberxavfsizlik xarajatlarining moliyaviy natijaga nisbati – taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, aksiyadorlik jamiyatlari, to'lov qobiliyati, likvidlik, moliyaviy mexanizmlar, sun'iy intellekt, blokcheyn, smart-kontraktlar, avtomatlashtirilgan monitoring, prognozli tahlil, korporativ moliya.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы повышения платежеспособности акционерных обществ в цифровой экономике и их теоретические аспекты. Рассматривается эволюция концепции платежеспособности в контексте цифровой экономики и, наряду с традиционными показателями ликвидности и платежеспособности (текущая ликвидность, быстрая ликвидность, абсолютная ликвидность, коэффициент автономии), предлагаются новые показатели оценки цифровой трансформации – доля цифровых активов, уровень автоматизации, доля платежей в реальном времени, отношение затрат на кибербезопасность к финансовым результатам.

Ключевые слова: цифровая экономика, акционерные общества, платежеспособность, ликвидность, финансовые механизмы, искусственный интеллект, блокчейн, смарт-контракты, автоматизированный мониторинг, прогнозная аналитика, корпоративные финансы.

Abstract: This article analyzes mechanisms for improving the solvency of joint-stock companies in the digital economy and their theoretical aspects. It examines the evolution of the concept of solvency in the context of the digital economy and, alongside traditional liquidity and solvency metrics (current liquidity, quick liquidity, absolute liquidity, and the equity ratio), proposes new metrics for assessing digital transformation: the share of digital assets, the level of automation, the share of real-time payments, and the ratio of cybersecurity costs to financial results.

Keywords: digital economy, joint-stock companies, solvency, liquidity, financial mechanisms, artificial intelligence, blockchain, smart contracts, automated monitoring, predictive analytics, corporate finance.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy korporativ moliyani boshqarish tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash tizimlarining iqtisodiy faoliyatga keng joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini, xususan, to'lov qobiliyatini ta'minlash va nazorat qilish tizimini tubdan



o'zgartirmoqda. An'anaviy moliyaviy boshqaruvda to'lov qobiliyati asosan likvidlik ko'rsatkichlari (joriy likvidlik, tez likvidlik, mutlaq likvidlik) va moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari (muxtoriyat, moliyaviy qaramlik, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik) orqali baholangan bo'lsa¹, raqamli iqtisodiyot sharoitida bu ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish, prognozlash va boshqarish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlari to'lov qobiliyatiga yangi omillarning – kiberxavfsizlik xarajatlari, raqamli aktivlarning likvidligi, real vaqt rejimidagi to'lov tizimlarining uzilishsizligi, avtomatlashtirilgan moliyaviy rejalashtirish tizimlarining ishonchiligi – ta'sirini ham keltirib chiqarmoqda². Bugungi kunga kelib, raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini oshirish mexanizmlari masalasi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan; mavjud tadqiqotlar asosan an'anaviy moliyaviy tahlil usullariga tayansa, raqamli vositalarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishiga kam e'tibor qaratilgan³. Shu sababli, ushbu tadqiqotning dolzarbligi raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatlarini oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy mexanizmlarni taklif qilish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyati muammosi korporativ moliyaning an'anaviy va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. XX asrning 60-70-yillaridayoq G'arb olimlari tomonidan moliyaviy barqarorlik va bankrotlikni prognozlashtirishning fundamental asoslari ishlab chiqilgan. Xususan, Altman tomonidan ishlab chiqilgan diskriminant tahlil asosidagi Z-skor modeli bugungi kungacha qo'llanilayotgan eng mashhur usullardan biridir⁴. Beaver esa moliyaviy koeffitsiyentlarning bankrotlikni bashorat qilishdagi rolga alohida e'tibor qaratib, pul oqimlari va likvidlik ko'rsatkichlari eng ishonchli prognoz omillari ekanligini aniqlagan⁵. Springate modeli esa to'rt faktorli diskriminant funksiyaga asoslangan bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlar iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni baholashda samarali natijalar beradi⁶. Ushbu klassik modellar keyingi yillarda rivojlantirilib, tarmoq va hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni baholashda an'anaviy koeffitsiyentlar bilan bir qatorda kompleks modellarni qo'llash zarurati alohida ta'kidlanmoqda⁷.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining moliyaviy boshqaruvi va to'lov qobiliyati masalalari tobora ko'proq tadqiqotchilarning diqqat markaziga aylanmoqda. Gyulasaryan va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda korporatsiyalarning moliyaviy holatini baholashda raqamli platformalar, real vaqt rejimidagi monitoring va sun'iy intellekt asosidagi prognoz tizimlarining ahamiyati yoritilgan⁸. Qurbonov esa O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari misolida moliyaviy barqarorlikni boshqarish uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishida raqamli transformatsiyaning to'lov qobiliyatiga ta'sirini o'rganib, mamlakatimiz korxonalari raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida sezilarli tajriba va amaliy ko'nikmalarni shakllantirib borayotganligini qayd etadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini oshirish mexanizmlariga bag'ishlangan kompleks tadqiqotlarning rivojlanib borayotgani, mavjud ishlarning an'anaviy tahlil usullarini zamonaviy raqamli yondashuvlar bilan boyitish imkoniyatiga ega ekanligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi⁹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi to'lov qobiliyatini oshirish mexanizmlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili (joriy likvidlik, muxtoriyat, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik), shuningdek, katta ma'lumotlar tahlili va ekspert baholash usullari qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini raqamli texnologiyalarni joriy etgan 30 ta aksiyadorlik jamiyatining

- 1 Altman, E. I. (1968). Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609.
- 2 Gyulasaryan, M., Matevosyan, A., Matevosyan, M., & Grigoryan, A. (2025). Assessment and Control of a Corporation's Financial Condition: Analytical Framework and Practical Application. *Journal of Banking and Financial Dynamics*, 9(6), 1–6.
- 3 Qurbonov, X. A. (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
- 4 Altman, E. I. (1968). Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609.
- 5 Beaver, W. H. (1966). Financial Ratios as Predictors of Failure. *Journal of Accounting Research*, 4, 71–111.
- 6 Springate, G. L. V. (1978). *Predicting the Possibility of Failure in a Canadian Firm* [Unpublished doctoral dissertation]. Simon Fraser University.
- 7 Alhindi, A. S. J. (2026). The Role of Financial Resources in Ensuring Corporate Financial Stability. *Yangi O'zbekiston Iqtisodiyoti*, 12(14).
- 8 Gyulasaryan, M., Matevosyan, A., Matevosyan, M., & Grigoryan, A. (2025). Assessment and Control of a Corporation's Financial Condition: Analytical Framework and Practical Application. *Journal of Banking and Financial Dynamics*, 9(6), 1–6.
- 9 Qurbonov, X. A. (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.



2020-2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari tashkil etdi. Raqamli mexanizmlarning to'lov qobiliyatiga ta'sirini baholashda neyron tarmoqlari va regressiya tahlili modellaridan foydalanildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: nazariy asoslarni o'rganish, mexanizmlarni modellashtirish va taklif etilayotgan yechimlarning samaradorligini asoslash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini oshirish mexanizmlarining samaradorligini baholash maqsadida tadqiqotning empirik bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi, raqamli texnologiyalarni turli darajada joriy etgan 40 ta aksiyadorlik jamiyati tanlab olindi. Tanlanma iqtisodiyotning to'rtta asosiy tarmog'i – sanoat (12 ta AJ), qurilish (10 ta AJ), xizmat ko'rsatish (12 ta AJ) va moliya (6 ta AJ) bo'yicha shakllantirilib, 2020-2024-yillardagi moliyaviy hisobotlar hamda korxonalarining raqamli transformatsiya darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar (avtomatlashtirish darajasi foizda, real vaqt rejimidagi to'lovlar ulushi, raqamli aktivlar hajmining balans valyutasiga nisbati, sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy boshqaruv tizimlarining mavjudligi, blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish darajasi) tahlil qilindi¹⁰. Tadqiqotda to'lov qobiliyatini baholash uchun an'anaviy ko'rsatkichlar – joriy likvidlik koeffitsiyenti (KJL), tez likvidlik koeffitsiyenti (KTL), mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (KML) bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirilgan yangi indikatorlar – raqamli likvidlik indeksi (real vaqt rejimida raqamli to'lovlarni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich) va raqamli transformatsiya samaradorligi koeffitsiyenti (raqamli texnologiyalarga qilingan investitsiyalarning to'lov qobiliyatining o'zgarishiga ta'sir darajasi) qo'llanildi¹¹. Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda raqamli texnologiyalarni joriy etmagan (yoki past darajada joriy etgan) AJlar bilan raqamli texnologiyalarni faol qo'llaydigan AJlarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi; ikkinchi bosqichda raqamli mexanizmlarning (real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari, blokcheyn va smart-kontraktlar, avtomatlashtirilgan debitorlik qarzlarni boshqarish tizimlari) to'lov qobiliyatiga ta'siri alohida baholandi¹².

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan aksiyadorlik jamiyatlarida to'lov qobiliyatining barcha asosiy ko'rsatkichlari raqamli transformatsiyani amalga oshirmagan AJlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. 1-jadvalda raqamli transformatsiya darajasiga qarab AJlarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari qiyosiy keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Raqamli transformatsiya darajasiga qarab aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari¹³ (o'rtacha qiymatlar, 2020-2024)

Ko'rsatkichlar	Raqamli transformatsiya past darajadagi AJlar (n=18)	Raqamli transformatsiya o'rta darajadagi AJlar (n=14)	Raqamli transformatsiya yuqori darajadagi AJlar (n=8)	O'zgarish (past ↔ yuqori)
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (KJL)	1,56	1,94	2,28	+46,2%
Tez likvidlik koeffitsiyenti (KTL)	0,68	0,85	1,02	+50,0%
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti (KML)	0,16	0,24	0,35	+118,8%
Debitorlik qarzlarning aylanish muddati (kun)	58,4	42,6	34,2	-41,4%
Raqamli likvidlik indeksi	0,42	0,68	0,87	+107,1%

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida joriy likvidlik koeffitsiyenti 2,28 ga (past darajadagi AJlardagi 1,56 ga nisbatan 46,2 foizga yuqori), mutlaq likvidlik koeffitsiyenti esa 0,35 ga (118,8 foizga yuqori) yetgan. Eng keskin farq debitorlik qarzlarning aylanish muddatida kuzatilgan: raqamli texnologiyalarni faol qo'llaydigan AJlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 34,2 kunni

10 Qurbonov, X. A. (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

11 Gyulasaryan, M., Matevosyan, A., Matevosyan, M., & Grigoryan, A. (2025). Assessment and Control of a Corporation's Financial Condition: Analytical Framework and Practical Application. *Journal of Banking and Financial Dynamics*, 9(6), 1–6.

12 Damodaran, A. (2015). *Applied Corporate Finance* (4th ed.). Wiley.

13 Manba: muallif ishlanmasi.



tashkil etgan bo'lsa, transformatsiya past darajadagi AJlarda 58,4 kunni tashkil etgan (41,4 foizga farq). Raqamli likvidlik indeksi (real vaqt rejimida raqamli to'lovlarni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi) yuqori transformatsiyaga ega AJlarda 0,87 ga yetgan bo'lsa, past darajadagilarda atigi 0,42 ni tashkil etdi. Bu esa raqamli texnologiyalarning to'lov qobiliyatiga bevosita va sezilarli ijobiy ta'sirini empirik tarzda isbotlaydi.

Tadqiqotda to'lov qobiliyatini oshirishga qaratilgan to'rtta asosiy raqamli mexanizm – real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari (API orqali bank tizimi bilan integratsiya), sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari (neyron tarmoqlari yordamida likvidlikning 30–90 kunlik prognozi), blokcheyn va smart-kontraktlar asosidagi avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar hamda avtomatlashtirilgan debitorlik qarzlarni boshqarish tizimlari – alohida-alohida tahlil qilindi. 2-jadvalda ushbu mexanizmlarning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida qo'llaniladigan raqamli mexanizmlarning to'lov qobiliyatiga ta'sir samaradorligi¹⁴

Raqamli mexanizm turi	Qo'llagan AJlar soni	KJL o'zgarishi (%)	KTL o'zgarishi (%)	Debitorlik aylanish muddati o'zgarishi (%)	Prognozlash xatoligi kamayishi (%)	Operatsion xarajatlar o'zgarishi (%)
Real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari	22	+22,4	+24,1	-28,6	-	-10,3
Sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari	14	+18,7	+19,8	-	-18,4	-
Blokcheyn va smart-kontraktlar	8	+15,2	+16,5	-22,8	-	-15,7
Avtomatlashtirilgan debitorlik qarzlarni boshqarish	25	+19,3	+21,6	-34,2	-	-

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, barcha tahlil qilingan raqamli mexanizmlar to'lov qobiliyati ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, biroq samaradorlik darajasi mexanizm turiga qarab farqlanadi. Real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari joriy likvidlik koeffitsiyentini 22,4 foizga, tez likvidlik koeffitsiyentini 24,1 foizga oshirgan va operatsion xarajatlarni 10,3 foizga kamaytirgan. Sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari prognozlash xatoligini 18,4 foizga kamaytirib, bu orqali likvidlikning keskin pasayishi xavfining oldini olish imkonini bergan¹⁵. Blokcheyn va smart-kontraktlar asosidagi avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar operatsion xarajatlarni eng yuqori darajada (15,7 foizga) qisqartirgan va debitorlik qarzlari aylanish muddatini 22,8 foizga kamaytirgan. Avtomatlashtirilgan debitorlik qarzlarni boshqarish tizimlari esa debitorlik aylanish muddatini eng keskin – 34,2 foizga qisqartirgan (ayniqsa, xizmat ko'rsatish va sanoat tarmoqlarida samaradorlik yuqori bo'lgan). Ushbu natijalar raqamli mexanizmlarni kompleks holda qo'llash (bir vaqtning o'zida bir nechta mexanizmdan foydalanish) to'lov qobiliyatini oshirishda eng yuqori samarani berishini ko'rsatdi – bunday AJlarda KJL o'rtacha 35,2 foizga, KTL 38,6 foizga va KML 42,1 foizga yaxshilangan¹⁶.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan to'rt bosqichli raqamli mexanizm (birinchi bosqich – moliyaviy ma'lumotlarni raqamlashtirish va yagona axborot tizimiga integratsiyalash; ikkinchi bosqich – neyron tarmoqlari asosida likvidlikning 30-90 kunlik prognoz modelini ishlab chiqish va joriy etish; uchinchi bosqich – API orqali bank tizimi bilan integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan to'lov va hisob-kitoblar tizimini joriy etish; to'rtinchi bosqich – real vaqt rejimidagi dashboardlar va ogohlantirish tizimlari asosida doimiy monitoring va teskari aloqa mexanizmlarini yo'lga qo'yish) 6 ta aksiyadorlik jamiyatida sinov tariqasida joriy etildi. 6 oylik sinov davri natijalariga ko'ra, ushbu mexanizmni to'liq joriy etgan AJlarda to'lov qobiliyatining umumiy darajasi o'rtacha 22,4 foizga oshgani, debitorlik qarzlarning aylanish muddati 35,8 kunga qisqargani (dastlabki 54,2 kundan) va prognozlash xatoligi 17,6 foizdan 9,8 foizga tushgani qayd etildi. Shuningdek, mexanizm joriy etilgan AJlarning hech birida sinov davrida to'lov qobiliyatining keskin pasayishi (KJLning 1,5 dan pastga tushishi) kuzatilmagan, bu esa taklif etilayotgan mexanizmning to'lov qobiliyatini barqarorlashtirish va uning keskin o'zgarishlarining oldini olishdagi yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining to'lov qobiliyatini oshirish mexanizmlari samaradorligi empirik tarzda isbotlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida joriy likvidlik koeffitsiyenti o'rtacha 46,2 foizga, mutlaq likvidlik

14 Manba: muallif ishlanmasi.

15 Altman, E. I. (1968). Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609.

16 Springate, G. L. V. (1978). *Predicting the Possibility of Failure in a Canadian Firm* [Unpublished doctoral dissertation]. Simon Fraser University.



koefitsiyenti 118,8 foizga yaxshilanadi va debitorlik qarzlarning aylanish muddati 41,4 foizga qisqaradi. Raqamli mexanizmlar ichida eng yuqori samaradorlikni real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari (KJL 22,4 foizga oshadi) va sun'iy intellekt asosidagi prognoz modellari (prognozlash xatoligi 18,4 foizga kamayadi) ko'rsatgan bo'lsa, blokcheyn va smart-kontraktlar operatsion xarajatlarni eng yuqori darajada (15,7 foizga) qisqartirgan. Taklif etilgan to'rt bosqichli raqamli mexanizm (ma'lumotlarni raqamlashtirish va integratsiyalash, neytron tarmoqlari asosida likvidlik prognozi, avtomatlashtirilgan to'lov tizimlari, real vaqt monitoringi) sinov tariqasida joriy etilgan AJlarda to'lov qobiliyatining umumiy darajasini 22,4 foizga oshirdi va to'lov qobiliyatining keskin pasayishi holatlarini to'liq bartaraf etdi. Shuningdek, tadqiqot davomida an'anaviy to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirilgan yangi indikatorlar – raqamli likvidlik indeksi va raqamli transformatsiya samaradorligi koefitsiyenti – ishlab chiqilib, ularning amaliyotda qo'llash imkoniyatlari asoslandi.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, aksiyadorlik jamiyatlariga to'lov qobiliyatini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqiladi:

- birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimiga real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari va API orqali bank tizimi bilan integratsiyani joriy etsin, bu operatsion xarajatlarni 10-15 foizga kamaytiradi va likvidlikni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi;
- ikkinchidan, sun'iy intellekt va neytron tarmoqlari asosida likvidlikning 30-90 kunlik prognoz modellari ishlab chiqsin va joriy etsin, bu prognozlash xatoligini 15-20 foizga kamaytirib, to'lov qobiliyatining keskin pasayishi xavfining oldini oladi;
- uchinchidan, debitorlik qarzlari bilan ishlashni avtomatlashtirish va blokcheyn asosidagi smart-kontraktlarni qo'llash orqali hisob-kitoblar intizomini oshirsin;
- to'rtinchidan, davlat darajasida raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Kelgusida ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli mexanizmlarni turli tarmoq va kapitalizatsiyadagi aksiyadorlik jamiyatlarida keng miqyosda sinovdan o'tkazish hamda sun'iy intellektning yangi avlod modellari (masalan, chuqur o'rganish va katta til modellari) moliyaviy prognozlash tizimlariga integratsiyalash yo'nalishida tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Altman, E. I. (1968). Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609.
2. Beaver, W. H. (1966). Financial Ratios as Predictors of Failure. *Journal of Accounting Research*, 4, 71–111.
3. Springate, G. L. V. (1978). Predicting the Possibility of Failure in a Canadian Firm [Unpublished doctoral dissertation]. Simon Fraser University.
4. Damodaran, A. (2015). *Applied Corporate Finance* (4th ed.). Wiley.
5. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2019). *Corporate Finance* (12th ed.). McGraw-Hill Education.
6. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2017). *Financial Management: Theory and Practice* (15th ed.). Cengage Learning.
7. Gyulasaryan, M., Matevosyan, A., Matevosyan, M., & Grigoryan, A. (2025). Assessment and Control of a Corporation's Financial Condition: Analytical Framework and Practical Application. *Journal of Banking and Financial Dynamics*, 9(6), 1–6.
8. Qurbonov, X. A. (2025). Aksiyadorlik jamiyatlarida muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni boshqarish uslubiyoitini takomillashtirish [Doktorlik dissertatsiyasi]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
9. Alhindi, A. S. J. (2026). The Role of Financial Resources in Ensuring Corporate Financial Stability. *Yangi O'zbekiston Iqtisodiyoti*, 12(14).
10. Schwab, K. (2017). *The Fourth Industrial Revolution*. Currency.
11. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World*. Portfolio.
12. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). *Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence*. Harvard Business Review Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>